



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA  
XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**XALQARO ILMIIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



**2025-yil 18-oktabr**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**

**2025-yil 18-oktabr**

**Toshkent – 2025**

**SHE’RIY ASARLARDA KOGNITIV METAFORALAR  
SHAKLLANISHIDA LINGVOMADANIY OMILLARNING TA’SIRI  
THE INFLUENCE OF LINGUISTOCULTURAL FACTORS ON THE  
FORMATION OF COGNITIVE METAPHORS IN POETRY**

10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/ZXJZ6095

**Juraqobilova Xamida Xolmatovna**

*Turon universiteti*

*Xorijiy tillar kafedrası professori, s.f.n.*

[\*xamidajuraqobilova@gmail.com\*](mailto:xamidajuraqobilova@gmail.com)

**Annotatsiya.** *She’riy asarlarda metafora ijodkor tafakkurining eng yorqin ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u badiiy obraz yaratish, inson qalbining ichki kechinmalari va his-tuyg‘ularini ifodalash hamda poetik ta’sir kuchini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metafora orqali shoir dunyoni o‘zining subyektiv idroki va estetik qarashlari asosida qayta talqin etadi, natijada til vositasida o‘ziga xos kognitiv manzara shakllanadi. Maqolada she’riy matnlardagi metaforalarning kognitiv asoslari va konseptual strukturalari o‘zbek adibi Abdulhamid Cho‘lponning she’rlari misolida tahlil qilingan. Uning she’riy metaforalari tilda nafaqat estetik obraz yaratadi, balki xalqning madaniy ongi, tarixiy tajribasi va milliy hissiyotini ham ifodalaydi. Shu jihatdan, Cho‘lpon poetikasida kognitiv metafora til, madaniyat va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.*

**Kalit so‘zlar:** *kognitiv metafora, lingvomadaniy omillar, milliy mentalitet, konseptual model, metaforik tafakkur.*

**Annotation.** *In poetic works, metaphor is one of the most vivid manifestations of a creator’s way of thinking. It serves as an important means of creating artistic imagery, expressing the inner experiences and emotions of the human heart, and enhancing the poetic effect. Through metaphor, the poet reinterprets the world based on their subjective perception and aesthetic worldview, as a result of which a unique cognitive picture is formed through language. This article analyzes the cognitive foundations and conceptual structures of metaphors in poetic texts, using the poems of the Uzbek writer Abdulhamid Cho‘lpon as examples. His poetic metaphors not only create aesthetic imagery in language but also reflect the cultural consciousness, historical experience, and national emotions of his people. In this respect, the cognitive metaphor in Cho‘lpon’s poetics emerges as an important means of revealing the intrinsic connection between language, culture, and thought.*

**Keywords:** *cognitive metaphor, linguistic and cultural factors, national mentality, conceptual model, metaphorical thinking.*

Bugungi kunda jahon tilshunosligida inson tafakkurining til vositasida namoyon bo‘lish jarayonlarini o‘rganish dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Til nafaqat kishilar o‘rtasida aloqa vositasi, balki xalqning dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va tarixiy tajribasini o‘zida mujassam etuvchi ijtimoiy hodisadir. Shu bois, til birliklarini, ayniqsa metaforani, uning kognitiv va lingvokulturologik asoslari bilan birgalikda o‘rganish zarurati ortib bormoqda. Kognitiv metafora nazariyasi tilni inson tafakkurining in’ikosi sifatida talqin etib, metaforani faqat tilning badiiy bezak vositasi emas, balki konseptual fikrlashning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida izohlaydi. Metafora orqali inson atrofidagi olamni idrok etadi, uni o‘zining madaniy, tarixiy va ruhiy tajribasi asosida qayta talqin qiladi. Shu ma’noda, har bir xalqning tilida shakllangan metaforalar ularning milliy tafakkuri va madaniy ongining mahsuli hisoblanadi.

Til va madaniyatning o‘zaro aloqasi ayniqsa badiiy matnlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ijodkor metafora orqali nafaqat estetik obraz yaratadi, balki o‘z xalqining dunyoqarashi, qadriyatlari va ruhiy olamini ifodalaydi. Metafora badiiy matnning markaziy elementi hisoblanib, uning ijodiy va emotsional ta’sirini shakllantiradi hamda asarning jozibali bo‘lishini ta’minlaydi. Ispan faylasufi X. Ortega-i-Gassetning ta’kidlashicha: “She’riyat sof metaforaning o‘zi, fan esa metaforadan vosita sifatida foydalanadi” [Xose, 1990: 68]. Metaforalarning kundalik, rasmiy, ilmiy, badiiy nutqda tutgan o‘rni masalasiga e’tibor qaratgan rus olimasi N.D.Arutyunovaning fikricha: “Metafora she’riy tafakkurning ham vositasi, ham mevasidir. U o‘z mazmun va mohiyati bilan badiiy matnga mos keladi” [Arutyunova, 1990: 15-16].

Amerikalik tadqiqotchilar J. Lakoff va M. Jonson asos solgan konseptual metafora nazariya asosida badiiy matnlarni tahlil qilish orqali poetik tafakkur va madaniy kontekstlar chuqurroq ochib beriladi [Djordj, Mark, 2004: 256]. Shu sababli, bu ifodali vositani tahlil qilish ham tilshunoslar, ham adabiyotshunoslar e’tiborini doimo jalb qilmoqda. Tadqiqotchilar ham bu lingvistik hodisaning lirik asar yaratishdagi go‘zalligini alohida e’tirof etgan holda XXI asrning zamonaviy lirikasida metaforani o‘rganish shoirlarning individual til ifodalarini yaratishga xizmat qilishini ta’kidlamodalar [Djamalova, 2018: 651-653]. Fransuz olimlarining ta’kidlashicha: “Adabiy asarlarda, ayniqsa, she’riyatda metaforani tushunishdagi qiyinchiliklar tadqiqotchilarni metaforani chuqurroq tushunish va uni qo‘llash jarayonini o‘rganishga undaydi” [Dirhan, Pakpahan, 2012: 1-8]. Shu sababli, lirik asarning asosiy tayanchi bo‘lgan metaforaning funksional xususiyatlarini chuqur o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb obyektlaridan biriga aylandi.

Metafora boshqa badiiy tasvir vositalariga qaraganda ancha faol bo‘lib, she’riy matnning jozibali bo‘lishini ta’minlaydi. She’riyatda metaforaning o‘rni, uning stilistik xususiyatlari masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Shavkat Rahmon she’rlari asosida olib borilgan D. Yunusovanning tadqiqotlarida badiiy matnlarda metaforaning leksik-grammatik vositalar orqali ifodalanish xususiyatlari, turli so‘z turkumlarining metafora hosil qilish imkoniyatlari hamda ularning sintaktik va stilistik ko‘rinishlari tadqiq qilingan. Tadqiqotchi Shavkat Rahmon she’riyati tahlili natijasida metaforaning poeziyadagi o‘rni muhim ahamiyatga ega ekanligini, u faqat narsa-hodisani shunchaki atabgina qolmay,

balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflashda, inson ongida atalayotgan narsa haqida jonli tasavvur obraz yaratishda vosita sifatida xizmat qilishini ta’kidlagan [Yunusova, 2022: 52].

She’riyatda metaforalar ko‘pincha mavhum tushunchalarni obrazli ifodalash uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, insonning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, umid va iztiroblari kabi murakkab holatlar metaforik shakllarda yanada aniqroq tasvirlanadi. Kognitiv metafora nazariyasiga asosan bu jarayon konseptual xarita asosida amalga oshadi, ya’ni, bir tushuncha boshqasi orqali ifodalanadi.

She’riyatni metaforasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘zbek she’riyatidagi kognitiv metaforalarda milliy madaniyatning aks etishi, xalqning an’analari, urf-odatlarini, dunyoqarashi va estetik qadriyatlarini orqali ifodalanadi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek adabiy merosining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulhamid Cho‘lpon ijodida metaforalarning lingvomadaniy jihatlarini tahlil etish milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada Cho‘lpon she’riyatidagi metaforalarning kognitiv asoslari va lingvokulturologik omillar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda metaforaning badiiy-estetik vazifasi bilan bir qatorda, u orqali xalqning madaniy ongi va milliy mentalitetining til vositasida ifodalanishi ochib beriladi.

Manbalarga ko‘ra Cho‘lponning “Qalandar ishq” she’ri 1920 yilda Boku shahrida yozilgan. Insonning eng oliy fazilatlarini va his-tuyg‘ulari aynan muhabbat bilan bog‘liq. Shoir mazkur she’rida insonning aynan muhabbat konsepti bilan bog‘liq ichki kechinmalarini tarannum etadi. Muhabbat inson tabiatini zavqlantiruvchi tuyg‘u bo‘lsa, uning eng oliy darajasi bu - ishq. Shu bois shoir she’rini “Qalandar ishq” deb nomlagan. Asarda insonning his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi va hissiy tajribalari natijasida shakllanadigan ko‘plab metaforalarni, xususan, “muhabbat” konsepti bilan ifodalangan ko‘plab ontologik metaforalarni uchratish mumkin. Shoir o‘z she’rini quyidagi misralar bilan boshlagan:

*Muhabbatning saroyi keng ekan, yo ‘lni yo ‘qotdim-ku,  
Asrlik tosh yanglig‘ bu xatarli yo ‘lda qotdim-ku.*

*Karashma dengizin ko ‘rdim, na nozlik to ‘lqini bordir,  
Halokat bo ‘lg‘usin bilmay, qulochni katta otdim-ku.*

Yuqoridagi misralar poetik obrazlar chuqur ramziy va metaforik ma’nolar bilan boyitilgan bo‘lib, ular shoirning individual badiiy tafakkuri bilan bir qatorda, xalqning madaniy va ma’naviy dunyoqarashi, tasavvufiy an’analari va Sharq poetik tafakkurining ildizlariga tayanilgan. Quyida ushbu misralardagi asosiy metaforalar va ularning lingvokulturologik asoslarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Yuqoridagi misralarda SEVGI – MAKON, SEVGI – SAYOHAT / HAYOT YO‘LI, MUHABBAT – DENGIZ kabi konseptual metaforalarga asoslangan metaforik iboralarni uchratish mumkin.

*Muhabbatning saroyi keng ekan, yo ‘lni yo ‘qotdim-ku* misrasida muhabbat o‘z chegarasiga ega bo‘lgan makon sifatida tasvirlangan. “Saroy” Sharq madaniyatida ulug‘lik, izzat va hashamat bilan bog‘liq tushunchadir. Shu sababli, muhabbatning “saroy”ga qiyos qilinishi bu tuyg‘uning qudratli, cheksiz va insonni o‘ziga singdiruvchi mohiyatini ifodalaydi. “Yo ‘lni yo ‘qotdim” birikmasi esa muhabbat

yo‘lida adashgan, o‘zini yo‘qotgan oshiq holatini bildiradi. Bu metafora orqali shoir insonning muhabbat olamidagi ruhiy sarosimasini, o‘z “men”idan kechish jarayonini ifodalaydi. Bu yerda SEVGI – MAKON konseptual metaforasiga asoslangan, muhabbat “saroy” (makon, hudud) sifatida konseptuallashtirilgan.

*Asrlik tosh yanglig‘ bu xatarli yo‘lda qotdim-ku* misrasidagi “*asrlik tosh*” metaforasi insonning ichki holatini, ya‘ni tuyg‘ularining toshdek qotib, azob va kutishdan muzlagan ruhiy kechinmasini ifodalaydi. “*Xatarli yo‘l*” esa muhabbat yoki hayot yo‘lini timsol qiladi. Sharq adabiy an‘analarida muhabbat yo‘li ma‘naviy sinov, sabr, iztirob va fano sari yo‘l sifatida talqin etiladi. Demak, bu metafora orqali shoir ishqni nafaqat hissiy, balki ruhiy-axloqiy yo‘l sifatida talqin etadi.

“*Karashma dengizin ko‘rdim, na nozlik to‘lqini bordir, halokat bo‘lg‘usin bilmay, qulochni katta otdim-ku*” misralarida shoir insoniy tuyg‘ular, xususan, muhabbatning murakkab holatini chuqur kognitiv metaforalar orqali ifodalagan. Bu misralarda muhabbat, hissiyot va inson ruhiyati tabiat hodisalari orqali ifodalangan. Sevgan insonni o‘ziga jalb qilish uchun qilingan tinimsiz noz-karashmalarni shoir juda go‘zal qilib, karashma dengizin, dengizdagi qaltis harakat halokatga olib kelishi bilmasdan, qulochimni katta ochdim, suzdim, ya‘ni, *muhabbatim* rad etilishini bilmasdan unga ishondim, bag‘rimni ochdim deya shoirona tasvirlagan shoir. “Dengiz” – chuqurlik, xavf va beqarorlik ramzi. Muhabbatni dengizga qiyos qilish – uning beomon, tubsiz va hissiyotga to‘la mohiyatini anglatadi.

“Karashma dengizi” ifodasi asosiy metaforik obrazdir. Bu yerda *karashma* (ya‘ni sevgi nigohi, ko‘z bilan ifoda etilgan his) *dengiz* bilan qiyoslangan. Dengiz inson ongida kenglik, cheksizlik, chuqurlik va sirli kuch timsoli sifatida qaraladi. Demak, shoir sevgilisining nigohini cheksiz bir olam sifatida tasvirlaydi. Bu misralardagi metaforalar SEVGI – DENGIZ konseptual metaforasi orqali ifodalangan.

*Halokat bo‘lg‘usin bilmay, qulochni katta otdim-ku* misrasida esa shoir o‘zini shu “karashma dengizi”ga tashlagani va muhabbat girdobiga sho‘ng‘iganini ifodalaydi. “Quloch otish” suvga sho‘ng‘ish, o‘zini suvga tashlash ma‘nosini beradi, lekin metaforik ma‘noda bu *his-tuyg‘ular dunyosiga sho‘ng‘ish, muhabbatga to‘liq berilishni* anglatadi. “*Halokat bo‘lg‘usin bilmay*” iborasida esa muhabbatning og‘riqli oqibatlarini bilmasdan sevgi sari intilganini ifodalagan. Umuman olganda, bu ikki misrada Cho‘lpon muhabbatni dengizga, his-tuyg‘ularni suv va to‘lqinga, sevgi sari intilishni esa dengizga sho‘ng‘ishga qiyoslaydi. Bu esa inson ongidagi *muhabbat – bu suv, dengiz, harakat* degan tabiiy assotsiatsiyalarga asoslangan kognitiv metaforalarning yorqin ifodasidir. Shoir bu metaforalar orqali sevgining cheksizligi, uning xavfli va halokatli kuchini badiiy tarzda ifodalaydi.

Ushbu misralardagi barcha metaforalar Cho‘lpon tafakkurining individual, ammo milliy-madaniy ildizlarga ega bo‘lgan timsollaridir. “Saroy”, “yo‘l”, “tosh”, “dengiz”, “to‘lqin”, “halokat” singari obrazlar o‘zbek xalqining tarixiy tajribasi, tabiatga bo‘lgan munosabati, Sharq poetik estetikasi bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli, bu metaforalar nafaqat shoirning shaxsiy badiiy tafakkur mahsuli, balki

xalqning madaniy ongida shakllangan dunyoqarash modellari ifodasi sifatida ham namoyon bo‘ladi

*Ajab dunyo ekan bu ishq dunyosi, ayo do‘stlar,  
Bu dunyo deb, u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku.*

“Ishq dunyosi” deya shoir muhabbatni “dunyo”ga qiyoslaydi. Bu yerda asosiy kognitiv model SEVGI BU – DUNYO shaklida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, muhabbat inson hayotining oddiy bir holati emas, balki o‘z qonunlari, o‘z tuyg‘ular tizimi mavjud bo‘lgan mustaqil olam sifatida idrok etiladi. Bu “ajab dunyo” degan ibora orqali muhabbatning sirli, hayratli va murakkab mohiyati ta’kidlanadi. “Ishq” mavhum tushunchasi “dunyo” o‘z chegarasiga ega bo‘lgan makon, sifatida anglashiladi. Kitobxon ishqni nafaqat hissiyot sifatida, balki uning ichida “yashayotgan”, unda “har qil voqealar sodir bo‘ladigan” bir makon deb tasavvur qiladi. Demak, inson tafakkuri ishqni faol tajriba makoni sifatida konseptuallashtiradi.

*Uning gulzorida bulbul o‘qib qon ayladi bag‘rim,  
Ko‘zimdan yoshni jo‘ aylab, alamlar ichra botdim-ku.*

Bu yerda SEVGI BU – MAKON konseptual metaforasi mavjud bo‘lib, uning asosida sevgini makon sifatida idrok etish konsepti yotadi. Inson ongida ishq mavhum hissiyot emas, balki tabiiy, kirib boriladigan, tajriba etiladigan makon sifatida modellashtirilgan.

OSHIQ – BULBUL. Bu klassik sharq poetik metaforasi bo‘lib, kognitiv jihatdan insonning ichki holatini tabiat mavjudoti orqali modellashtirishdir. Bulbul – hissiy, sevgiga berilgan, so‘zlaydigan, nola qiladigan qush. Inson ongida bulbul “his-tuyg‘uni ifoda etuvchi” konseptdir. Bu metafora orqali inson o‘zini tabiat bilan birlashtirib, hissiy holatini jonli obraz orqali idrok etadi. “*Qon ayladi bag‘rim*” metaforik iborasida qonning aylanishi jismoniy jarayon emas, balki ruhiy azobning jismoniy lashtirilgan ifodasidir. Inson ongida kuchli hissiyot (qayg‘u, alam, yor sevgi azobi) jismoniy og‘riq bilan konseptual bog‘langan. Bu yerda qon ayladi bag‘rim metaforasi RUHIY OG‘RIQ – JISMONIY JAROHAT konseptual metaforasi asosida hosil bo‘lgan.

SEVGI BU – DUNYO, HIS-TUYG‘U – MODDIY OBYEKT konseptual metaforalarida *his-tuyg‘ular* obyekt, makon yoki moddalar sifatida talqin qilingan. Insonning fazoviy yo‘nalishlardagi tajribasi asosida shakllanadigan oriyentatsion metaforalar kabi ontologik metaforalar ham jismoniy obyektlarga, xususan, inson tanasi bilan bog‘liq insonning individual tajribalariga asoslanadi. Ya’ni, ontologik metaforalar - hodisalar, harakatlar, his-tuyg‘ularni obyekt yoki moddalar sifatida talqin qilish usulidir.

*Alamlar ichra botdim-ku* metaforasi HIS-TUYG‘U – IDISH/ KONTEYNER konseptual metaforasiga asoslanadi. Bu yerda insonning ichki his-tuyg‘ulari, iztiroblari o‘z chegarasiga ega bo‘lgan konteyner, idish sifatida ifodalangan. I SEVGI BU – DUNYO, HIS-TUYG‘U – MODDIY OBYEKT, HIS-TUYG‘U – IDISH/ KONTEYNER konseptual metaforalarining kognitiv mexanizmi inson bilishining oddiy qonuniga asoslanadi: noma’lum narsa ma’lum narsa orqali ma’lum bo‘ladi. Ontogenez jarayonida odam o‘zini o‘rab turgan dunyo bilan

o‘zaro aloqaga kirishadi va aqliy tasavvurlarni yaratadi, ular orasida ontologik tushunchalar muhim ahamiyatga ega. Dunyo o‘z chegarasi va ichki makoniga ega bo‘lgan obyektlar to‘plami sifatida tasniflanadi [Budaev, Chudinov, 2021:25].

Qalandardek yurib dunyoni kezdin, topmayin yorni,  
Yana kulbamga qayg‘ular, alamlar birla qaytdim-ku.

Muhabbat osmonida go‘zal Cho‘lpon edim, do‘stlar,  
Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.

*“Qalandardek yurib dunyoni kezdin, topmayin yorni”* ifodasi ishqni safar yoki izlanish jarayoni sifatida ko‘rsatadi. SEVGI BU– SAYOHAT konseptual metaforasi orqali inson ruhiy holati jismoniy harakat orqali idrok etiladi, oshiq “qalandar” sifatida, ya’ni moddiy dunyodan voz kechib ma’naviy yo‘lga chiqqan ruhiy sayyoh sifatida shoirona ifodalangan. Demak, inson ongida muhabbat yo‘li muayyan makon bo‘ylab harakat qilishga o‘xshash faol tajriba sifatida modellashgan. Umuman olganda, Cho‘lpon bu misralarda muhabbatni alohida bir olam sifatida tasvirlab, insonning unga kirishi va unda yo‘qolishini badiiy tarzda ifodalaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish munkinki, she’riyatda kognitiv metaforalarning o‘rni katta bo‘lib, ular nafaqat asarning estetik jihatini belgilab beradi, balki xalqning ruhiyati, tarixi va milliy qadriyatlarini ham o‘zida aks ettiradi. Shoirlar o‘z she’rlarini yaratishda metaforalardan unumli foydalanadilar, hatto o‘zlari metafora yaratadilar. She’riy matnlarda kognitiv metaforalarning qo‘llanishi she’riyatning semantik va madaniy boyligini chuqur anglashga imkon beradi. Ular insonning ichki dunyosi va atrof-muhitni tasvirlashdagi noyob til vositalaridir. Ular nafaqat tilning estetik imkoniyatlarini, balki milliy tafakkur va madaniy merosni ham aks ettiradi. She’riy matnda metaforik ma’no yanada bo‘rttirilgan holda, ijodkor kechinmalarining “jon tomirida” yugurib yuruvchi sehrlil kuchga aylanadi [Kabuljonova, Yoqubboyeva, 2022: 206].

O‘zbek she’riyatidagi kognitiv metaforalarda milliy madaniyatning aks etishi, xalqning an’analari, urf-odatlari, dunyoqarashi va estetik qadriyatlari orqali ifodalanadi. O‘zbek she’riyatidagi kognitiv metaforalarning milliy madaniyat bilan bog‘lanishi, she’riyatning nafaqat lingvistik, balki madaniy va estetik kuchini ham namoyon etadi. Har bir metafora milliy tafakkur, urf-odatlar va o‘ziga xos xususiyatlar orqali chuqur ma’nolarni aks ettiradi, bu esa o‘zbek she’riyatining alohida ahamiyatini tashkil etadi. Cho‘lpon she’riyatida metaforalar badiiy fikrning asosiy ifodasi sifatida xizmat qiladi va shoirning ruhiy holati hamda dunyoqarashini ochib beradi. Cho‘lpon “Qalandar ishq” she’rida metaforalar orqali ishqning ruhiy va ilohiy mohiyatini ochib berishga harakat qilgan, ular orqali oshiqning iztirobi, ichki kechinmalarini obrazli tarzda mohirona ifoda etgan. Metaforalar natijasida she’rda ishq safari, nur va kulba kabi timsollar insonning ichki kechinmalarini jonli va ta’sirchan tarzda namoyon etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Arutyunova N.D. Metafora i diskurs. Teoriya i metaforы. –M.:Progress, 1990. – S.15-16.

2. Budaev E.V., Chudinov A.P. Ontologicheskie metaforы kak sredstvo modelirovaniya budущego Rossii v SMI Ssha. Kommunikativные issledovaniya. 2021. T.8. № 1. – S. 25.
3. Djamalova M.K. Funkcii metaforы v yazyke sovremennoy poezii. Mir nauki, kultury, obrazovaniya. № 6 (73) 2018. – С.651-653.
4. Kabuljonova G.K., Yoqubboyeva Sh. To‘raxon qizi. She’riy matnda qo‘llangan metaforik birliklarning uslubiy xususiyatlari (Iqbol Mirzo she’rlari misolida). Research Focus, Uzbekistan. Volume 1. Issue 3, 2022. 203-206.
5. Lakoff Djordj, Djonson Mark. Metaforы, kotoгыmi мы jivem: Per. s angl. / Pod red. i s predisl. A. N. Baranova., Morozova A.V. - M.: Yeditorial URSS, 2004. – 256 c.
6. Yunusova D.A. Shavkat Rahmon she’riyatida metaforani hosil qiluvchi leksik-grammatik vositalar tadqiqi. Filol.fan.b.falc.dok. (PhD) diss. avtoref. –Samarqand, 2022. –52 b.
7. Xose Ortega-i-Gasset. Dve velikie metaforы. Teoriya i metaforы. –M.: – Progress, 1990. – S. 68.
8. Dirhan R. R., Pakpahan B. La métaphore dans les poèmes françaises d’Arthur Rimbaud // Hexagone. – Medan: Universitas Negeri Medan, 4 (2), 2012. – P. 1–8.
9. Cho‘lponning. Qalandar ishq. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/cholpon.html>

**MUNDARIJA**

<i>Sirojiddinov Sh.</i>	O‘zbek tili – xalqaro maydonda!	
<b>I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI</b>		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo‘lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O‘zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She‘riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta‘siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov B., Sharipova S. Istamova SH.</i>	O‘zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so‘zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o‘zbek tili leksik sathiga doir ba‘zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O‘zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92
<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek,</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107

<i>Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xūlasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177
<i>Utegenova O‘g‘iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning	191

	o‘rganilganlik darajasi hamda turlari	
<i>Turg‘unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o‘rni	199
<i>O‘ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o‘zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o‘xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G‘aybullayev Erkinjon</i>	O‘zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho‘lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o‘ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o‘rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o‘zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o‘zbek leksik tizimidagi o‘rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O‘zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o‘rni	260
<i>Turg‘unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o‘rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik vositalarning o‘rni	274
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo‘chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so‘zlashuv, ibora va maqollarning qo‘llanishi	285
<b>II SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.</b>		

<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma’lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o‘rni	297
<i>Ruzibaeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O‘zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta’limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G‘ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma’lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O‘zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilabaev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта изучения узбекского языка как второго	361
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o‘rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga	385

	ta’siri: XXI asrda yozma va og‘zaki muloqotning transformatsiyasi	
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta’sirchanligini oshirishda sifatlarning o‘rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko‘p ma’noli so‘zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O‘rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she’riyati leksikasini chastotali lug‘at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug‘bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	“Fiziologik xatolar”ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o‘ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo‘llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o‘zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o‘rni	443
<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O‘zbek tilidagi ayrim fe’l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zga tilli o‘quvchilarning nutqini o‘stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova</i>	Tilshunoslarga bog‘lab berilgan tomorqa...	477

<i>Nargizaxon</i>		
<b>III SHO‘BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI</b>		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O‘zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo‘ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалья: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509
<i>Otamirzayeva Sug‘diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o‘zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohibjamol</i>	Ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o‘xshatishlar tadqiqi	539

<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O‘zbek va ingliz xalq maqollaridagi “omad” va “omadsizlik” konseptlarining qiyosiy tahlili	544
<b>IV SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI VA O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI</b>		
<i>Ahmet Akalin</i>	Kültür taşıyıcısı olarak özbek dilinin diplomatik fonksiyonu	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O‘zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Türk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboeva Khavojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581
<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o‘zbek tillari misolida	584
<b>V SHO‘BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI</b>		
<i>Tanju Seyhan</i>	Ali şir Nevâyî ve üslubunda fiillerin yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O‘zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Farhad Rahimi</i>	Nezrali’nin çağatay türkçesi sözlüğünün yanlışları üzerine II	611
<i>Vahidə Cəfərzadə</i>	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640

<i>Muhammadiyeva Dilafro ‘z</i>	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo‘ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo‘janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan manbalarida ishlangan Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	“Qo‘noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O‘razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o‘rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay, Görge Bay)	711
<i>Meryem Hamişoğlu</i>	Türkçenin ilk sözlüğü <i>Dîvânu lugâti't-türk</i> 'ten özbek türkçesine bitki adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o‘rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O‘zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o‘simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o‘rganish obykti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug‘otit turk”dagi o‘z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O‘tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba’in she’rlarda “hayit” so‘zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Naimaxon Siddiqova</i>	Eskirgan so‘zlarning eskirmagan ma’nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	The stylistic, linguistic and psycholinguistic analysis of femalemale forms of address in the texts	766

	of the book of “Dede Qorqud”	
<i>Roza Turdiyeva</i>	O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	775